

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISH USULLARI

Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna –
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda har bir o'qituvchi yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Quyidagi maqolada ayrim misollar orqali ona tili darslarida nutq o'stirishning ayrim usullaridan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: ona tili darslari, metodika, boshlang'ich ta'lim, nutqiy kompetensiya, rol o'ynash metodi, ta'lim texnologiyalari, ijodiy fikrlash, dars metodlari

Kirish

Yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib tuzilgan, ta'limning jahon andozalariga mos keladigan dastur va darsliklar yaratish – davr talabi. Hozirgi o'zbek adabiy tili qurilishining ilmiy talqinlari ham lug'aviy-grammatik munosabatlar tizimi, o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari tizimi ham yangilandi va rivojlantirildi. Ona tilining yangilangan yo'nalishidan asosiy maqsad o'quvchilarning o'z ona tilida fikrini to'g'ri, aniq, ravon va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda yetkaza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili darslarining asosiy vazifasi sanaladi. O'quvchilarning til o'rganishi va nutqiy rivojlanishidagi muhim bosqich boshlang'ich ta'lim davri hisoblanadi. Integrativ yondashuv o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini har tomonlama shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.[1;2-bet]

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta'lim texnologiyalari, boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili va o'qish savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro'yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendentsiyalari ustunlik qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi quyidagilardan iborat.

Asosiy qism

Ona tili mashg'ulotlarida fikrni og'zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug'ilganda o'quvchilardagi so'z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so'zlarni takroriy qo'llash, berilgan so'zni uning ma'nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma'noligi

bilan almashtira olmaslik, ma'lum bir sohaga qarashli so'zlar lug'atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o'quvchilarning so'z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishda tilni to'g'ri, aniq va samarali tarzda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni bo'lib, bu kompetensiya til o'rganishda ham uni amaliyotda qo'llashda ham muhim ahamiyatga ega. Nutqiy kompetensiyani shakllantirishning fonetik jihatiga e'tibor bersak, to'g'ri talaffuz qila bilish ham muhimdir. Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz ham tilning tovush jihatiga ham alohida e'tibor beradi. Ayniqsa u xalqning turli joyda yashashi natijasida, so'zga qo'shimchalar qo'shilganda harfiy va ayni paytda tovush o'zgarishiga uchrashini qayt etadi. Bobur bobomiz tog'asi Sulton Mahmudxonga o'z ahvoli va istagini ifodalovchi quyidagi ruboiyni manzur etar ekan, qofiyalardagi o'rin-payt kelishigi qo'shimchalaridagi "d" tovushining "t" tovushiga aylanishiga diqqatini qaratib shunday deydilar. "Bu ruboiyni xonga o'tkarib, taraddudimni arz qildim" deydilar.

Yod etmas emish kishini mehnatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngilni g'urbatda kishi,
Ko'nglim bu g'ariblikda shod o'lmadi hech,
G'urbatda sevinmas emish, albatta kishi. [2;21-bet]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda darsliklardagi mashqlar bilan ishlash, topshiriqlarning mazmunini tushunish muhimdir. O'quvchilar avval so'zlar va gaplar asosida fikrni ifodalashni o'rganadi, so'ngra gaplarni mantiqiy ketma-ketlikda bog'lab, oddiy matnlar tuzishga o'rgatiladi. O'quvchilarga nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda dars jarayonining tashkil etilishi, metodik yondashuv va o'qituvchining ustuvor roli muhim sanaladi. O'quvchilar biror mavzuni o'zlashtirar ekan, shu bilan birga tilni ham faol o'rganadi. Masalan 3-sinf ona tili darsligidagi mashqlardan biriga e'tibor bersak. [3;3-bet]

30-mashq.

Jumboq bola

Qor desang, bobo deydi, Soat qumga to'lar der.

Muz bilan qaymoq yeydi. Chechakni boy deb aytar,

Teshikdan kulcha ko'rar, Boltani oy deb aytar,

Atirni gulday terar. - O'zi qandoq bola bu?

Toshli baqa bolar der, - Ajib jumboq bola bu!

Tursunboy Adashboyev

She'rni yod oling.[4;28-bet]

O'quvchilarga she'rni yod oldirish orqali ifodali aytirish orqali o'quvchilarning nutqini, so'z boyligini oshirishimiz mumkin. Unda shunday bir usulda yod oldiringki, hali buni hech kim o'ylab topmagan bo'lsin. Masalan: so'z birikmasi shaklida yod oldirish.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, ularni mantiqiy, izchil va mazmunli fikr yuritishga o'rgatish ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda og'zaki topishmoq va maqollar bilan ishlash mashqlarni savol-javob tarzida balki o'quvchilarning o'zlariga yangi gaplarni, fikrlarni tuzdirish orqali olib borilsa o'quvchining nafaqat tilda savodxon bo'lishini, balki tafakkurini shakllantirish, dunyoni mantiqiy tushunish va o'z fikrini to'g'ri bayon qilish malakasini rivojlantiradi. O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi. O'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Bu boradagi tadqiqotlar, amaliy tajribalar va metodik tavsiyalarni chuqurlashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Jarayonining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarda til va nutq bilan bog'liq ko'nikmalarni turli fanlar, amaliy mashg'ulotlar Erkin mavzuda fikr aytish, bahs-munozara tashkil etish ham nutqiy shakllantirish imkonini beradi.

Takliflar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda o'quvchiga har kuni darslik kitobidagi 5-6 ta yangi so'z o'rganishni va lug'at daftari tutishni topshiriq qilib berish
2. O'quvchilarga rasmiy topshiriqlar berish. Savollarda esa bu rasmda nima bo'layapti? Ob-havo qanday tasvirlangan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chorshanbiyevna, M. D. (2025). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI NUTQINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'STIRISH USULLARI. *ACUMEN: International journal of multidisciplinary research*, 2(6), 120-124.2
2. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" Toshkent:O'qituvchi nashryoti,2008 y.- 21b.
3. Mamatraimova, D. C. (2025). Boshlang 'ich sinf o 'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o 'stirish usullari. *Строительство и образование*, 4(3), 78-81.
4. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism. / D. Baynazarova - Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. - 88 b.